

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Olimjonova O‘g‘ilxon Abdurasul qizi

Namangan davlat universiteti, Pedagogika kafedrası
San‘at va sport fakulteti 3 -bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973221>

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS topshiriqlari asosida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni oshirish, uning mohiyati, ilmiy-nazariy tavsifi, funksiyalari va ijtimoiy tamoyillari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar, ta‘lim-tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va tegishli adabiyotlarda unga berilgan tavsiflar, tahlil qilinadi. Unda zamonaviy diagnostik metodikalar, uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy pog‘onasi bo‘lmish boshlang‘ich sinflarida tahsil olayotgan bolalarning tanqidiy fikrlashini tashxislash uchun amal qilinishi lozim bo‘lgan ta‘lim-tarbiya mexanizmlari to‘g‘risida pedagog-psixolog, axloqshunos, siyosatshunos olimlarning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, ta‘lim sifati, innovatsion pedagogika, funksional savodxonlik, metodik tayyorgarlik, zamonaviy ta‘lim.

KIRISH.

Bugungi kunda ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlatlar va xalqaro ta‘lim tizimlarining ustuvor vazifalaridan biridir. Xalqaro baholash dasturlari – PISA, PIRLS va TIMSS o‘zaro taqqoslash imkoniyatlarini yaratib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu dasturlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish zarurati mavjud.

Xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS va TIMSS hisobotlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va funksional savodxonlik darajalarida farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi natijalari xalqaro o‘rta darajada bo‘lib, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmagani haqida signal beradi. Ushbu ko‘rsatkichlarning pastligi, asosan, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini yetarlicha egallamasligi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan.

ASOSIY QISM.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim siyosati va xalqaro baholash natijalari o‘rganilganda, mamlakatimizda funksional savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha mavjud strategik hujjatlar va chora-tadbirlar milliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonida amaliy va interaktiv metodlarni keng joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali natijalar beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2907-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 345-sonli farmoni doirasida amalga oshirilayotgan malaka oshirish dasturlari, pedagoglarning innovatsion usullarni o‘zlashtirishiga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilishiga yordam bermoqda. Biroq, ushbu dasturlarni yanada kengaytirish va sifatini oshirish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Tanqidiy fikrlash — bu ma‘lumotlarni tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Muammo yechish esa o‘z navbatida muammoni aniqlash, tahlil qilish va samarali yechim topa olish jarayonidir. Bu ikki ko‘nikma o‘quvchilarning mustaqil fikrlovchi, ijodkor va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tanqidiy fikrlash – bilimni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni ob‘yektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish, muammolarni hal qilishga alohida e‘tibor beriladi hamda o‘quvchilarda bunyodkor g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonch paydo qilinadi. Amalga oshirilgan tahlillar natijasi ushbu aqliy faoliyatda g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

uyg‘unlashtirish, konsentratsiyalash hamda axborotlarni qayta tahlil etishga zamin yaratilishini ko‘rsatdi. Bunda:

- 1) o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallashga ruhan tayyorlash;
- 2) o‘quvchilarning o‘z fikrlari qat‘iyligiga bo‘lgan ishonchini barqarorlashtirish;
- 3) muayyan sinf o‘quvchilarida jamoaviy tarzda tanqidiy fikr yuritishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatni vujudga keltirish amaliyotini tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr kompetensiyalarining markazida aynan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammo yechish, muloqot va hamkorlik kabi ko‘nikmalar turadi. Xalqaro tashkilotlar — UNESCO, OECD va boshqalar — bu kompetensiyalarni har bir mamlakat ta‘lim tizimida rivojlantirishni tavsiya etmoqda. Chunki zamonaviy davrda bilimning o‘zi emas, balki uni amaliyotda qo‘llay olish, yangi vaziyatlarga moslasha bilish va muammolarga ijodkorona yondasha olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiya, Singapur, Kanada kabi mamlakatlarda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun faol o‘qitish usullari, loyiha asosida o‘qitish va hamkorlikda o‘rganish metodlari keng qo‘llaniladi. Natijada bu mamlakatlar PIRLS natijalarida yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda.

PIRLS topshiriqlari asosida tuzilgan matnlar asosan Milliy o‘quv dasturi loyihasi doirasida ishlab chiqilgan o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish, matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Avvalgi o‘quv dasturlarida baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan, yangi dasturda esa o‘quvchilarda shakllangan ko‘nikmalar baholanadi.

O‘qish bevosita og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lib, ifodali o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishga, o‘quvchilar orasida matndagi ma‘lumotlarni o‘zaro muhokama qilish, tahlil qilish orqali muloqotga kirishishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlash kattalardagidek rivojlanmagan, shuning uchun ular ko‘proq vizual tasavvurni ishga solishadi. Matnda uchraydigan narsa-buyum, hayvonlar yoki predmetlar haqida vizual tushunchaga ega bo‘lib, so‘ngra muntazam shular haqida fikr yuritish orqali o‘quvchilarlarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash shakllana boshlaydi.

PIRLSga o‘quvchilarni tayyorlashda o‘rganilayotgan obyektlar bilan integratsiyalashgan yondashuv va aloqalar, o‘rganishdagi aqliy faoliyatni faollashtirish, vizual in‘ikolarni rivojlantirish, xulosalar, qo‘shimcha ma‘lumotni nafaqat o‘quv materiallari bo‘yicha, balki kundalik hayotda ham topish muhim ahamiyatga ega. PIRLS tadqiqoti bo‘yicha o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi.

Interaktiv jarayon bu – o‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali ma‘lumot yaratish. Konstruktiv jarayon – berilgan nostandart ko‘rinishdagi matnlar asosida o‘quvchi ma‘noni yaratadi. Konstruktiv so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib “construct” - yaratmoq degan ma‘noni bildiradi. O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma‘no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi.

PIRLS standarti asosida o‘quvchilarning o‘qish va tushunish darajasini sinfda va sinfdan tashqari o‘qish jarayonini mustaqil tarzda hamda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishi, bilish darajasi, qobiliyatini baholagan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. PIRLS baholash dasturining maqsadi o‘quvchilarning badiiy tajriba orttirishi hamda ma‘lumot olishi va ulardan foydalanishi uchun o‘qitish jarayonini tashkil etishga erishishdir. O‘qituvchining asosiy vazifasi – bolani vaziyatdan chiqib ketish va kreativ fikrlashga o‘rgatish, axborotning mo‘l-ko‘lligini to‘g‘ri yo‘naltirish, kerakli ma‘lumotlarni olish va ulardan foydalanishdan iborat. O‘qituvchi o‘quvchilarni haqiqiy hayotga, to‘g‘ri fikrlashga, xulosaga tayyorlashi kerak.

XULOSA

Zamonaviy ta‘lim berishda asosiy urg‘u o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantiradigan o‘quv materiallarni tanlashga qaratilishi lozim. O‘qitish jarayonini didaktik loyihalashda o‘quvchilar intellektualligini oshiruvchi innovasion metodlardan foydalanish lozim, o‘quvchilarning eng muhim psixologik hislatlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish (chunki tanqidiy fikrlash aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida, ijtimoiy-axloqiy sohada o‘z ifodasini topishi muqarrardir) zarur. Demak, bugungi kunda boshlang‘ich

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini topish, ularning tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq xatti-harakatlarini rag‘batlantirish uchun ularni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov S.S. “Dalillarni eslab qolish va g‘oyalarni isbotlash”.-T.: O‘qituvchi. 2005.- 4-bet.
2. Nazarov Q. Falsafa metodologiyasi Toshkent: Yangi asr avlodi. 2005 -78-bet.
3. Дьюи Дж. Индивидуализация обучения школьников. -Чикаго.,1991.-С.-19.
4. Ходжйева F.O. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogikasoslari.//Личностно-ориентированный подход к современному Vol. 3 No.5 (2024)
5. Adams, C.A. (2013), Sustainability reporting and performance management in universities: Challenges and benefits. Sustainability Accounting, Management and Policy Journal Vol 4 Iss 3, pp. 384-392
6. Hauser, S.M. (2000), “Education, ability, and civic engagement in the contemporary, United States. Social Sciences Results, Vol. 29 No 4, pp.556-582
7. Pardabaev J.E. ““STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852